



**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA
FOYDALANILADIGAN INNOVATSION VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI
ОПИСАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ,
ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В РАЗВИТИИ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ
ПЕДАГОГОВ
DESCRIPTION OF INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS USED IN THE
DEVELOPMENT OF ANALYTICAL THINKING IN FUTURE PEDAGOGUES**

Abdujabborov Abduxalim Abdug'appor o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda foydalaniladigan innovatsion va interfaol metodlar tavsiflangan va o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье описаны инновационные и интерактивные методы, используемые в развитии аналитического мышления будущих педагогов, и проанализированы их особенности.*

Abstract: *The article describes the innovative and interactive methods used in the development of analytical thinking in future pedagogues and analyzes their specific aspects.*

Kalit so'zlar: *analitik tafakkur, fanlararo hamkorlik, innovatsion va interfaol metodlar, blits-so'rov, klaster, sinkveyn, konseptual jadval.*

Ключевые слова: *аналитическое мышление, междисциплинарное сотрудничество, инновационные и интерактивные методы, блиц-опрос, кластер, синквей, концептуальная таблица.*

Key words: *analytical thinking, interdisciplinary cooperation, innovative and interactive methods, blitz survey, cluster, syncway, conceptual table.*

KIRISH. Oliy ta'limda bo'lajak kadrlarning analitik tafakkurni rivojlantirishda amalda keng qo'llanib kelinayotgan "Blits-so'rov", "SWOT-tahlil", "Munozara", "FSMU", "Intellectual duyel", "Fikrlar bahsi" kabi interfaol metodlardan; "Fikriy hujum", "Bumerang", "Zinama-zina" kabi interfaol strategiyalardan; "BBB", "Kontseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster" kabi grafik tashkilotchilar (organayzerlar) – umumpedagogik interfaol ta'lim metodlaridan o'z o'rnida mahorat bilan foydalanishi ijobiy samara beradi. Misol uchun, "SWOT-tahlil", "Tushunchalar tahlili" metodi talabani mustaqil fikr yuritishga undashi, tafakkur yuritishga ehtiyoj va motivatsiya uyg'ota olishi bilan xarakterlanadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida analitik tafakkur ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davob etmoqda. Jumladan, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, U.Mahkamov, R.Safarova, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Y.Shiyanov Z.T.Soliyevalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida analitik tafakkurning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish omillari tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotni olib borishda fanlararo hamkorlik asosida tashkil etiladigan darslar hamda auditoriyadan tashqari o'qish mashg'ulotlari birligining bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratildi. Mashg'ulotlar davomida darslarning noan'anaviy, innovatsion hamda interfaol xarakterga ega bo'lishiga e'tibor qaratildi. Quyida fanlararo hamkorlik asosida analitik tafakkurni rivojlantirishga nisbatan innovatsion va interfaol yondashuv mohiyati ochib beriladi.

1. "Blits-so'rov" metodi yordamida analitik tafakkurni rivojlantirish. "Blits-so'rov" metodi (ing. "blits" – tezkor, bir zumda) berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod. O'qituvchi savollar berdi. Talabalar javoblarni o'qituvchi tomonidan belgilangan yondashuvga ko'ra jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytardi. Guruh va juftlikda ishlanganda bir nafar talaba, ko'p holatlarda esa har bir savolga alohida-alohida talaba javob qaytardi, guruhdoshlari yoki sherigining javobni to'ldirdi. Bunga javobning qisqa, lo'nda va aniq bo'lishiga e'tibor qilindi.

2. "Klaster" grafik organayzerida tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish. "Klaster" (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzer. U puxta o'ylangan strategiya bo'lib, ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Klaster odatda elippsda ifodalanadi. Zero, elipps 3600 da tushunchalarni o'zaro bir-biri bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi.

3. Sinkveynda "analitik tafakkur" tushunchasining mazmunini ifodalash. Sinkveyn (fr. "besh qator") – ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir talaba ushbu ma'lumotlar yig'indisini o'z so'zlari bilan turli variant yoki qarashlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega.

Talabalarga sinkveynga asoslangan o'quv topshirig'ini berishda dastlab ushbu strategiyaning mohiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Sinkveyn talabalar tomonidan o'qituvchi ishtirokida to'ldirilishi zarur. Eng avval, o'qituvchi har bir qator bo'yicha talabalarning takliflarini tinglab, doskasida qayd etib boradi. So'ngra barcha qatorlar bo'yicha talabalar tomonidan bildirilgan takliflar umumlashtirilib, yagona variant shakllantiriladi. Yagona variantni



shakllantirishda o'qituvchi talabalarning fikrlarini grammatik jihatdan to'g'rilab ketishi ham mumkin.

4. "Konseptual jadval" grafik organayzerda analitik tafakkur tushunchasini yoritish. "Konseptual jadval" ("Ta'riflovchi jadval") talabalarni mavzu (masala, muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlarini o'zaro taqqoslashga o'rgatadi, ularda mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimlashtirish qobiliyatini o'stiradi.

5. "Barcha omillarni hisobga ol!" (BOHO) metodi yordamida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish zaruratini yoritish. "Barcha omillarni hisobga ol!" (boho) metodi talaba e'tiborini muayyan omillarga qaratishga xizmat qiluvchi metod sanalib, uni qo'llashdan ko'zlangan maqsad shaxs ongini rivojlantirish, fikrlash tarzini kengaytirish, tafakkurini boyitishdir.

Metod qanchalik aniq maqsad asosida qo'llanilsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Agar talaba u yoki bu fikrni ochiq aytishga tortinsa, u holda metodni qo'llash hech qanday samara bermaydi.

6. "Mantiqiy chalkash zanjir" strategiyasi asosida tanqidiy va tahliliy fikrlash tarizining zaruratini yoritish. Strategiya tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni "ulash"dan iborat.

Quyida keltirilgan usullar ham bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida keng foydalanish yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlashga olib keladi.

«Munozara» metodi. Mazkur metod talabalarni faollashtirish, bahsga barcha ishtirokchilarni jalb qilish maqsadida tashkil qilinadi. Ma'lumki, oliy ta'limning odatdagi seminar mashg'ulotlarida o'qituvchi bir necha talaba bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Guruhdagi talabalar esa darsni monolog shaklida o'tganligi sababli zerikib qolmaydilar.

«Aqliy hujum» usulida ijodiy vazifaning muhokama qilinishi va unga baho berilishi talabalarda tarixiy manbaalardan anglashilgan mulohazalari o'sha davr to'g'risida aniq tushuncha hosil qilishiga yordam beradi.

«Aqliy hujum» usuli bu – bosim ostida aqliy kuch yo'li bilan qabul qilingan g'oyalarni hamkorlikda muhokama qilishdir. U vaqtinchalik mustahkamlangan, jismoniy yoki ruhiy cheklovlarning o'rnatilishi vositasida yaratiladi. Asabiy zo'riqishsiz qatnashuvchini ixtiyorsiz va birdan javob berishga majbur qiladi. Ko'p hollarda bu mashq to'g'ri va hissiyotli natija beradi. Agar undan to'g'ri foydalana olinsa, u juda foydali usuldir.

«Aqliy hujum» mashqi qo'llanilgan dars sur'ati nazorat qilib boriladi. Bu kabi mashqlar auditoriyani bosim bilan ushlab turilgan vaqtda yaxshi samara beradi.



Shuningdek, tarix darslarida tarixiy –badiiy asarlaridan foydalanish jarayonida «Yashin tezligida» usulini qo'llash ham yaxshi samara beradi. Bunda barchani birdek jalb qilish, faol ishtirok etmayotgan, u qadar so'zomol bo'lmaganlarga to'g'ridan-to'g'ri savol berish tavsiya etiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar fanlararo hamkorlikda o'quv jarayonini tashkil etish uchun umumiy xulosa va tavsiyalar taqdim etish imkoniyatini beradi. Avvalo, ta'lim-tarbiya berish jarayonida yuksak axloqiy va nazariy, kasbiy bilimlarni egallashga yo'naltirishda o'quv jarayoni texnologiyasiga e'tibor qaratish, mavjudlarini real imkoniyatlar bilan takomillashtirish lozim;

- analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or pedagogik texnologiyalarni tasniflash va ularni amaliyotga tatbiq etish loyihalarini ishlab chiqish (har bir mashg'ulot kesimida);

- bakalavriat va magistratura o'quv rejasidagi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda analitik tafakkurni rivojlantirish omillariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq;

- oliy ta'lim bitiruvchilarining analitik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar, xususan SWOT-tahlil uslubinining samaradorligini e'tiborga olgan holda o'quv jarayoniga keng qo'llashni ta'minlash maqsadga muvofiq.

Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlariga nisbatan ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ayniqsa talabalarda pedagogik mahoratning muhim kompetensiyasi hisoblangan kommunikativ ko'nikmalar, pedagogik muomala madaniyatini tarkib toptirish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak pedagog shaxsiga neyropedagogik nuqtai nazardan yondashgan holda ta'lim berish boshqa pedagogik voqeliklardan qator o'ziga xos afzalliklariga ega bo'lib, analitik tafakkurni rivojlantirish nafaqat bo'lajak pedagogning intellektual rivojlanish darajasi, balki, uning individual imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishni taqozo etadi.

Bo'lajak pedagogning analitik tafakkuri intellektual faoliyatning eng murakkab va yuksak shakli sifatida psixologiya va neyrofiziologiyaning tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qiladi. Neyropsixolog yoki biolog nuqtai nazarida tafakkur – bu neyronlar guruhining faollashuvi. So'nggi paytlarda jahon miqyosida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq masalalarni talabaning bosh miyasi tuzilishining o'ziga xosliklari bilan bog'lovchi ilmiy yo'nalishlar: neyropsixologiya, neyrolingvistika yoki neyropsixolingvistika, psixolingvistika kabi yo'nalishlar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish dars jarayonini barcha bosqichlarini tashkil etishda motivatsiyani hosil qilish, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish, tabaqalashtirilgan yondashuvni tatbiq etish, nazorat turlarining xilma-xilligini ta'minlashni talab etadi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, mazkur jarayonda ularni ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga



o'rgatish, talabalarning subektivligini oshirish hisobiga subekt-obekt munosabatlaridan subekt-subekt munosabatlariga o'tish, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil yetish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ularda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bunday imkoniyatlar kontekstli va loyihaviy ta'lim texnologiyalari asosida rivojlanadi. Bu jarayonda bo'lajak pedagoglarning ta'lim olishdagi ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari tubdan o'zgarib ketadi.

Analitik tafakkur tarzi bo'lajak pedagoglardan yangi o'zlashtirgan ilmiy bilimlarini mavjud bilimlari bilan taqqoslab borishi, analiz va sintez qilish va uyg'unlashtirishlari talab etiladi. Bu esa ularda tanqidiy fikrlashni, axborotlarga mustaqil yondashuvni shakllantiradi va izlanuvchanlikni oshiradi. Natijada, ularning mustaqil qarorlar qabul qilishga tayyorlik darajalari ortadi. Ularda mustaqillik, mas'uliyatlilik, muloqotga kirishuvchanlik, faollik, maqsadga intiluvchanlik, ishchanlik, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik sifatleri tarkib topadi.

"Voqealar rivoji texnologiyasi" bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda turlicha yondashuvlar, voqea va hodisalar, yangi g'oyalar va ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanishning, ta'sirchanligini oshirishga, kompetensiyaviyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega sanaladi. Mazkur texnologiya bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidagi turli yondashuv va munosabatlar bo'yicha bir - biriga bog'langan voqealarni tizimli tarzda yetkazib berish uchun zanjir vazifasini bajarishga qaratilgandir.

XULOSA. Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishdagi samarali yo'llardan biri sifatida kontekstli ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Bu texnologiya bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U integrativ ko'rinishda bo'lib, turli ta'lim texnologiyalari, xususan, muammoli, loyihali, moduli, masofaviy ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga olishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Крючков, В. Н. (2005). Методологические аспекты SWOT-анализа. Journal of new economy, (10)
2. Майсак, О. С. (2013). SWOT-анализ: объект, факторы, стратегии. Проблема поиска связей между факторами. Прикаспийский журнал: управление и высокие технологии, (1), 151-157.
3. Национальная модель и программа по подготовке кадров-достижение и результат независимого Узбекистана.-Ташкент:Маърифат-Мададкор, 2001.-С.174-189.
4. Романов В. Интеллектуальные информационные системы в экономике. -



М. : Экзамен, 2003. –С.494.

5. Семенов И.Н. Рефлексивный подход в формировании и развитии личностно-профессионального самосознания студентов как фактор модернизации высшего образования. Москва.:ФИРО, 2013. –С.57-59.

6. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: методология, теория, практика: научное издание. –М.: 2005. –С.67-71.